ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

# Tabiiy holda uchraydigan suv o`simliklarning xilma-xilligi va ularning chorvachilikdagi ahamiyati (Xorazm viloyati sharoitida)

**K.R .Yo‘ldashev**,UrDU,Biologiya kafedrasi dotsenti,b.f.f.d.,
kopalboyyoldashev@gmail.com
**Sh.O.Odamboyeva , UrDU biologiya yo`nalishi magistranti,**
shaydoodamboyeva@gmail.com
**X.D.Shavkatova, UrDU biologiya yo`nalishi magistranti,**masharipovz590@gmail.com

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada Xorazm viloyati sharoitidagi suv havzalarida tabiiy holda uchraydigan qamish va qo`ga turkumi o`simliklarining tur tarkibi va bioekologik xususiyatlari haqida malumotlar berilgan. Qamish turkumiga kiruvchi oddiy qamish (Phragmites communis),ko’l qamishi (Scirpus lacustris), tugunakli qamish (Bolboschoenus maritimus)hamda qo`g`a turkumining Kengbarg qo’g’a- T.latifolia L, Laksman qo’g’asi – T.laxmannii Lepech, , T.minima Funk, Nozik qo’g’a-T.angustata Bory et Chaub turlarining geografik tarqalishi,bioekologik xususiyatlari va ahamiyati haqida ma`lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** oddiy qamish, ko’l qamishi, tugunakli qamish, tugunak poya,keng bargli qo`g`a,laksman qo`g`asi,nozik qo`g`a, lo’x

**Аннотация.** В данной статье представлены сведения о видовом составе и биоэкологических особенностях растений из рода камыш и рогоз, встречающихся в природных условиях водоемов Хорезмской области. Приводятся данные о географическом распространении, биоэкологических особенностях и значении обыкновенного камыша (Phragmites communis), озерного камыша (Scirpus lacustris), клубневого камыша (Bolboschoenus maritimus), а также о видах рогоза: широколистный рогоз (T. latifolia L.), рогоз Лаксманна (T. laxmannii Lepech), T. minima Funk, узколистный рогоз (T. angustata Bory et Chaub).

**Ключевые слова:** обыкновенный камыш, озерный камыш, клубневый камыш, клубневое стебло, широколистный рогоз, рогоз Лаксманна, узколистный рогоз, слоновый рогоз.

**Annotation.** This article provides information on the species composition and bioecological characteristics of plants from the reed and cattail genera that naturally occur in the water bodies of the Khorezm region. The geographical distribution, bioecological features, and significance of common reed (Phragmites communis), lake reed (Scirpus lacustris), tuberous reed (Bolboschoenus maritimus), as well as the cattail species: broadleaf cattail (T. latifolia L.), Laxmann's cattail (T. laxmannii Lepech), T. minima Funk, and narrowleaf cattail (T. angustata Bory et Chaub) are presented.

**Keywords:** common reed, lake reed, tuberous reed, tuberous stem, broadleaf cattail, Laxmann's cattail, narrowleaf cattail, Typha elephantina.

**Kirish.**Yovvoyi suv o’simliklari bir tomondan yuqori ozuqa manbai hisoblansa, ikkinchi tomondan o’zi yashayotgan muhitda ya’ni ko’llar, suv havzalari, hovuzlar, kallektorlar va zaxkashlar tabiiy iqlim muhitini bir me’yorda tutib turish ya’ni ekologik muvozanatni saqlab turishda katta ahamiyatga egadir. Chorva fermer xo’jaliklarida boqilayotgan chorva mollarini sifatli yem- xashak maxsulotlari bilan ta’minlash uchun qishloq xo’jaligi ekinlari asosiy manbadir. Lekin qishloq xo’jaligi ekinlari chorvachilikning turli sohalarini rivojlantirish uchun yetarli manba

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024
THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
VOLUME-5, ISSUE-5

bo'la olmaydi, ya'ni hamma chorvachilik sohalarini sifatli, to'yimli ozuqa birligi yuqori bo'lgan yem-xashak mahsulotlari bilan ta'minlab bo'lmaydi. Chunki bu yem-xashak maxsulotlarini tayyorlash uchun juda katta ekin maydonlari hamda ko'plagan mablag'lar talab qilinadi. Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlangan yem-xashak maxsulotlari fermer xo'jaliklariga iqtisodiy qimmatga tushadi. Shuning uchun olimlarimiz oldida shu vaqtgacha begona o't sifatida qaralayotgan yuqori ozuqa birligiga ega bo'lgan o'simliklarni o'rganish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

**Material va metodlar.**Kuzatishlar Xorazm viloyati Xazorasp,Xonqa,Urganch tumaniga qarashli tabiiy va su`niy suv havzalari,ko`llar va zaxkashlarda olib borildi.Tajriba ob`ekti sifatida qamish va qo`g`a turkumi o`simliklari tanlab olindi.O`simliklar tarqalishini o`rganishda geobotanik va fenologik kuzatish uslublaridan foydalanildi.O`simlik turlarini aniqlashda "O`zbekiston o`simliklari aniqlagichi" kitobidan foydalanildi.

**Natija va munozara.** Xorazm viloyati sharoitida Amudaryo va Orol dengiziga bog'liq ravishda katta-katta ko'llar va tabiiy suv havzalari hamda bir necha yuz kilometrga yetadigan zovurlar shakllangan. Ko'l va tabiiy suv havzalarida tabiiy ravishda uchraydigan suv o'simliklari orasida qamish, qo'g'a, kurmak kabi yovvoyi o'simliklar katta maydonlarni egallaydi. Lekin bu o'simliklarning ko`pchiligi ilmiy jihatdan to'liq o'rganilgan emas. Shuning uchun bu o'simliklarni o'rganish insonlar uchun yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuzatish va o`rganishlar natijasida qamish va qo`ga turkumining quyidagi turlari aniqlandi.

**1-jadval. Aniqlangan turlarning suv qatlamida tarqalishi va ahamiyati.**

| № | **O'simlik nomi** | **Ilmiy nomi** | **Suvda o'sish holati** | **Ahamiyati** |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Oddiy qamish | Phragmites communis | Suvga yarim botib | Ozuqa manbai, qurilishda |
| 2. | Ko'l qamishi | Scirpus lalustris | Suvga yarim botib | Ozuqa manbai |
| 3. | Tugnakali qamish | Bolboschoenus maritumus | Suvga yarim botib | Ozuqa manbai |
| 5. | Kengbargli qo'g'a | T.latifolia L | Suvga yarim botib | Ozuqa manbai,qurilishda |
| 6. | Laksman qo'g'asi | T. laxmanni lepech | Suvga yarim botib | Dorivor , ozuqa manbai , biofiltr |
| 7. | Mayda qo'g'a | T. minima Funk | Suvga yarim botib | Dorivor ,ozuqa manbai |
| 8. | Nozik qo'g'a | T.angustata Bory et Chaub. | Qalqib | Biofiltr, ozuqa manbai |

**Oddiy qamish (Phragmites communis).** Bu o'simlik ilmiy adabiyotlarda qamish deyilmaydi, mahalliy nomi qamish deb tarqalgani uchun biz ham qamish deb ta'riflaymiz. Oddiy qamish har xil suv havzalarida keng tarqalgan, baland bo'yli o'simlik bo'lib, 1.5-4 m chuqurlikdagi suvlarda yaxshi rivojlanib, bo'yi 8 m gacha yetadi. Oddiy qamishning tugunak ildizi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024
THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
VOLUME-5, ISSUE-5

tuproqning 10-60 sm chuqurlikdagi qismida joylashgan bo'lib, undan chiqqan ildizlar 1.5-1.7m chuqurlikgacha borib yetadi. Bu o'simlik asosan vegetativ yo'l- tugunak ildizi va urug'i yordamida ko'payadi. Poyasi bo'g'imlarga bo'lingan, bargi uzum lineykasimon boshog'i bor. Qamishning yer osti qismi-tugunak poyasi biomassasining asosiy qismini, 84% ini, yer usti qismi esa 16% ini tashkil etadi[3].

**Ko'l qamishi (Scirpus lacustris)** oddiy qamishga nisbatan past bo'yli (2-3m) bo'lib,chuchuk suvli ko'llar, daryolar, kanallar, zovurlar, botqoqliklar va boshqa suv xavzalarida hamda daryo qirg'oqlarida ham o'sadi. O'rta osiyo jumladan O'zbekistonda ko'l qamishining "Qozog'iston" nomli turi keng tarqalgan bo'lib, 1.5-3- m gacha bo'lgan chuqurlikdagi suvlarda 3.5 m bo'lib o'sadi. Bargi ensiz lineykasimon, yumshoq. Ildizi ikki xil: birinchi turi tugunak poyadan chiqib, tuproqning ichiga tarqalib ketgan, tuproqdan oziq moddalarni olish va o'simlikni tutib turish uchun xizmat qiladi. Ikkinchi xil ildizi esa yuqoriga qarab o'sib, qo'shimcha nafas olish organi vazifasini bajaradi.Ko'l qamishining yemishlik xususiyati juda yuqori. Ko'l qamishining tugunak ildizida 93% organik moddalar va 7% mineral moddalarning borligi ma'lum. Organik moddalarning 6% dan ko'prog'ini oqsillar, 3%ini yog', 43%ini uglevodalar (asosan kraxmal) tashkil etadi. Ko'l qamishidan silos tayyorlash ham mumkin [3].

**Tugunakli qamish (Bolboschoenus maritimus)** ham hayvonlar uchun yaxshi yemishdir. Uning poyasi, bargini boshoq chiqargunga qadar qoramollar va otlar yaxshi yeydi. Tugunakli qamishning urug'i o'rdak, g'oz, tustovuq va boshqalarning asosiy yemishi hisoblanadi. Uning kimyoviy tarkibi oddiy va ko'l qamishlariga nisbatan boyroq bo'lib, tugunakida 60-70% kraxmal borligi aniqlangan. Bu o'simlikning yashil qismida esa 10% oqsil, 44% gacha uglevodlar, shu jumladan 25% klechatka, 2-2.5% yog', 10% ga yaqin mineral moddalar mavjud. Tugunakli qamish sholipoya, zovur va kanallarni ifloslovchi yovvoyi o't hisoblanadi[3].

**Kengbarg qo'g'a- T.latifolia L.**Kengbarg qo'g'aning changchi to'pgullarning eni 1-1,5 sm urug'chi to'pgullarniki 2-2,5 sm, qoramtir-qo'ng'ir.Bo'yi 1-2 metr, poyasining yo'g'onligi 1-1,5 sm.Barglari yassi, keng qalami, eni 1-2 sm. Adir va tog' zonasidagi daryo va ko'l bo'ylarida, soylardagi botqoqlashgan yerlarda o'sadi. Barglari poyasidan uzunroq,ostki tomoni do'ng.Bu o'simlik lo'x deb ham ataladi.U 0,5-1,2 m chuqurlikdagi chuchuk va uncha sho'r bo'lmagan suv havzalarida keng tarqalgan namli yerlarda ham o'sadi, lekin tuproqning qurib qolishiga chidamaydi.Qo'g'a tugunak ildizli ko'p yillik o'simlikdir.Qo'g'aning tugunagi kraxmalga juda boy bo'lib, 46 % ni tashkil qiladi.Yashil massaning tarkibida 5 % oqsil, 50,7 % uglevodlar, 27,1 % klechatka, 1,2 % yog', 8 % mineral moddalar bor [4].

**Laksman qo'g'asi – T.laxmannii Lepech.**Urug'chi va changchi to'pgullari 1-4 sm oraliqda joylashgan. Changchi to'pguli ingichka, eni 5 mm,uzunligi 20 sm cha. Urug'chi to'pgulining eni 1-2 mm, uzunligi 8 sm cha . Cho'l zonasida daryo, ko'l bo'ylariga botqoqlashgan yerlarda o'sadi. Iyul-avgustda gullab urug'laydi.Urug'chi gullari gulyonbargchali. Barglari poyasidan kaltaroq yoki unga teng, deyarli yassi bo'yi 1m gacha. Barglari ensiz 1-1,5 mm. Bu o'simlik oddiy qo'g'aga nisbatan kam tarqalgan[3].

**Mayda bargli qo'g'a- T.minima Funk.**Bu o'simlikning urug'chi va changchi to'pgullari 0,5-2 sm oraliqda joylashgan. Changchi to'pgullarning uzunligi 3-7 sm, urug'lariniki 1,5-4,6 sm. Bo'yi 30-100 sm, poyasining yo'g'onligi 4-6 mm. Cho'l zonasida daryo va ko'l bo'ylarida o'sadi. Iyul- avgustda gullab urug'laydi.Bo'yi 1-2 mm barglarining eni 4 mmdan ortiq .To'pguli qoramtir-

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024
THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY
VOLUME-5, ISSUE-5

qo'ng'ir. Gulyonbargcha tumshuqchadan ko'ra kaltaroq. Bu qo'g'aning ahamiyati oddiy qo'g'aga nisbatan yuqori bo'lib,poyasining ozuqaviy tarkibi ko'p bo'lganligi sababli chorvachilikda va yilqichilikda katta ahamiyatga ega [3].

**Nozik qo'g'a- T.angustata Bory et Chaub.**Bu o'simlikning urug'chi va changchi to'pgullari 2-4 sm oraliqda joylashgan.Changchi to'pgullari 15-20 sm. Urug'chi to'pgullari yetilganda 10-16 sm, kulrang- qo'ng'ir. Cho'l va adir zonasida daryo ,ko'l va ariq bo'ylarida o'sadi. Iyul- avgust oylarida gullab urug'laydi.Ko'llarning juda soy joylarida hamda botqoqlik hosil qilgan joylarida ko'p uchraydi.Asoson chorvachilikda , baliqchilikda qo'llaniladi [4].

**Xulosa.** Xorazm viloyati sharoitida qamishning 3 turi va qo`g`aning 4 turi borligi aniqlandi.Qamish turkumi ichida ko'l qamishi (Scirpus lacustris) juda katta maydonlarni egallaydi va katta -katta qamishzorlarni hosil qiladi.Qamishzorlar o`zi o`sib turgan sharoitda o`ziga xos iqlim muhitini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Qo`g`aning boshqa turlariga nisbatan kengbarg qo'g'a- T.latifolia L. turi keng tarqalganligi aniqlandi.

Chorvachilikning qoramolchilik, parrandachilik, baliqchilik, mo'ynachilik va cho'chqachilik sohalarida qamish va qo`g`a turkumi o'simliklarining roli nihoyatda kattadir. Bu o`simliklarning ozuqaviy va boshqa xususiyatlarini e`tiborga olib, madaniylashtirish ishlarini amalga oshirish tavsiya qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1.B.S.Islomov, M.A.Hasanov Botanika (darslik). Samarqand 2020.

2.O'. Pratov, L.Shamsuvaliyeva, E.Sulaymonov, X.Axunov, k.Ibodov, V.Mahmudov. Botanika (morfologiya, anatomiya, sistematika, geobotanika). Talim nashriyoti Toshkent-2010.

3. A. Rahimov, S. Rahimova "Suv o`simliklari- ozuqa manbai"Toshkent O`zbekiston «Fan» 1987.

4.A. Hamidov, M. Nabiyev, T. Odilov O`zbekiston o`simliklari aniqlagichi Toshkent «O`qituvchi» 1987.